INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

XURSHID DO‘STMUHAMMAD QISSALARIDA PSIXOLOGIK TASVIR

Davronova Maxfuza Isroilovna
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kefedrasi profesori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. *Mazkur maqola XX asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos ijod etayotgan Xurshid Do‘stmuhammad qissalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda psixologik tasvirga urg‘u berilib, adib yaratgan obrazlari mana shu me’yor asosida tadqiq etilgan. Psixologik tasvir, psixologizm hamda psixologik analiz tushunchalari xususida to‘xtalib, bu tushunchalar bir-biridan farq qilishi va ularning zamiridan obrazning ruhiy kayfiyatini aniqlash mumkin ekanligi haqida mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar*: psixologik tasvir, obraz, asar, obyekt, mimika, pantomimika, jist*

https://doi.org/10.5281/zenodo.14060806

Abstract. This article is dedicated to the study of the stories of Khurshid Dostmuhammad, who is a unique author in the Uzbek literature of the 20th century. Emphasis is placed on the psychological image, and the images created by the writer are studied based on this criterion. Focusing on the concepts of psychological image, psychologism and psychological analysis, it is discussed that these concepts differ from each other and that it is possible to determine the mental mood of the image from their essence.

Key words: psychological image, image, work, object, mime, pantomime, jist

Psixologizm badiiy asar obyekti sifatida inson ruhiyatini, psixologik holatlarni va ichki tajribalarni o'rganishga qaratilgan yondashuvdir. Bu, asosan, insonning ichki kechinmalari, hissiyotlari, fikrlari va ularning shaxsiy hayoti bilan bog‘liq aspektlarini yoritishga intiladi. Psixologizm, shuningdek, xarakterlar va ularning psixologik motivlari, ichki konfliktlari va ijtimoiy munosabatlari o‘rtasidagi bog'lanishlarni ochib berishga imkon beradi. Psixologizmning ahamiyati quyidagilarda kuzatiladi:

1. Inson ruhiyati: Psixologizm badiiy asarlarning asosiy mavzusi sifatida inson ruhiyatini o'rganadi. Asarlar, qahramonlarning ichki holatini, ruhiy kechinmalarini va hissiy tajribalarini chuqur tasvirlash orqali o‘quvchiga insoniy tabiatni yanada yaxshi tushunishga yordam beradi.
2. Ichki konfliktlar: Psixologizm asarlaridagi asosiy elementlardan biri ichki konfliktlardir. Qahramonlar o'z hissiyotlari va fikrlari orasidagi kurashlar, shaxsiy qiyinchiliklar va ijtimoiy bosimlar bilan kurashadi. Bu, o'quvchiga xarakterlarning rivojlanishini va ularning qarorlarining psixologik sabablari haqida fikr yuritishga imkon beradi.
3. Tashqi va ichki dunyo: Psixologizm tashqi va ichki dunyo o‘rtasidagi munosabatlarni ko'rsatadi. Xarakterlarning ichki holati ko'pincha ularning tashqi muhitga

bo'lgan munosabati orqali ochiladi, bu esa o'quvchiga ijtimoiy sharoitlarni va shaxsiy psixologik xususiyatlarni birga ko'rishga imkon beradi.

4. Hissiy kechinmalar: Psixologizm badiiy asarlarni insonning hissiy kechinmalarini va ularning shakllanish jarayonini o'rganish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu, asarlarni yanada jozibador va real qiladi, chunki o‘quvchilar qahramonlar bilan emotsional jihatdan bog‘lanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Insoniy qadriyatlar: Psixologizm, shuningdek, insoniy qadriyatlar, axloqiy tanlovlar va shaxsiy mas‘uliyat kabi mavzularni ham qamrab oladi. Qahramonlarning psixologik motivlari va ijtimoiy bosimlar bilan bog‘liq qarorlari, ularning hayot yo'lini va baxtini belgilaydi.

Adabiyotda psixologik tasvirning roli va ahamiyati katta, chunki u xarakterlarning ichki dunyosini, hissiyotlarini va fikrlarini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Psixologik tasvirlar adabiy asarda qahramonlarning xulq-atvori, qaror qabul qilish jarayonlari va o‘zaro munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida psixologik tasvirning adabiyotdagi roli va ahamiyatini batafsil ko‘rib chiqamiz:

1. Ichki dunyo tasviri

• Psixologik tasvir xarakterlarning ichki hissiyotlari va fikrlarini aks ettiradi. Bu, o‘quvchilarga qahramonlar bilan yanada chuqur munosabat o‘rnatishga yordam beradi.

• Xarakterlarning ichki kurashlari, ehtiroslari va qaror qabul qilish jarayonlari tasvirlanganida, o‘quvchilar qahramonlarning psixologik holatini yaxshiroq anglaydilar.

2. Qahramonlarning hissiy holati

• Hissiy holatlar, masalan, quvonch, qayg‘u, umidsizlik va ishonchsizlik, psixologik tasvir orqali aniq ifodalanadi. Bu, o‘quvchilarga xarakterlarning ruhiy holatini va ularning muammolarini tushunishga yordam beradi.

• Hissiyotlarning o‘zgarishi va rivojlanishi xarakterlarning harakatlariga ta’sir qiladi, bu esa hikoyaning dramatik kuchini oshiradi.

3. Psixologik motivlar

• Psixologik tasvir xarakterlarning motivlarini va harakatlarini aniqlashda muhimdir. Qahramonlarning qaror qabul qilish jarayonida ichki motivlar va tashqi ta'sirlar o‘rtasidagi bog‘lanish psixologik jihatdan tasvirlanadi.

• Bu motivlar ko‘pincha qahramonlarning shaxsiy rivojlanishiga va o‘zgarishiga olib keladi.

4. Ijtimoiy va madaniy kontekst

• Psixologik tasvir ijtimoiy va madaniy kontekstni yoritishda ham muhim rol o‘ynaydi. Qahramonlarning psixologik holatlari o‘z vaqtida yashayotgan jamiyatning ijtimoiy sharoitlari bilan bog‘liq.

• Madaniyat va an'analar qahramonlarning ichki muammolarini va hissiyotlarini shakllantiradi, bu esa ularning psixologik tasviriga ta'sir qiladi.

5. O‘quvchilar bilan munosabat

• Psixologik tasvir o‘quvchilarni xarakterlar bilan bog‘laydi va ularning his-tuyg‘ulariga ta'sir qiladi. Bu, asarlarni o‘qish jarayonida qahramonlar bilan empatiya o‘rnatishga yordam beradi.

• O‘quvchilar qahramonlarning ichki kurashlari va hayotiy muammolarini ko‘rganda,

ularning o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va his qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

6. Dramatik kuch

• Psixologik tasvir hikoyaning dramatik kuchini oshiradi. Qahramonlarning ichki kurashlari va hissiyotlari o‘quvchilarni jalb qiladi va hikoyaning ta'sirini kuchaytiradi.

• Psixologik jihatdan kuchli sahnalar ko‘pincha o‘quvchilarda kuchli his-tuyg‘ularni uyg‘otadi va asarning esda qolarli bo‘lishiga yordam beradi.

Psixologik tasvir adabiyotda xarakterlarning ichki dunyosini ochib berishda, o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini uyg‘otishda va hikoyaning dramatik kuchini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu, o‘z navbatida, asarlarni yanada chuqurroq anglash imkoniyatini yaratadi. Adabiyotda psixologik tasvirlar, shuningdek, qahramonlarning insoniyliklarini ochib beradi va ularni yanada real, hayotiy va qiziqarli qiladi.

Ruhiy tasvir va ruhiy tahlil ildizlari tarixan juda chuqur ruhiy -psixologik hodisa XXI asrga qadar bir talay tadrijiylikda o‘z taraqqiyot bosqichini bosib o‘tgan. Chunonchi, antik davr adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, qadimgi davrlarda ham nafaqat mifologik obrazlar, balki real hayotiy hodisalarni tasvirlashda inson obrazi va uning qiyofasidagi tashqi va ichki tasvirni berish alohida o‘rin tutganligi ma’lum bo‘ladi. Masalan, Gomerning “Iliada”va "Odisseya", Hind xalgining “Romayana” va “Mahabharat” dostonlarida ham ruhiy talotumlar boy tasvirini kuzatish mumkin bo‘ladi. Umuman olganda Sharq va G‘arb xalq og‘zaki ijodida inson tasviri, uning ruhiy kayfiyati asta-sekinlik bilan o‘z o‘rinini topa bordi. G‘arb va Sharq xalqlari folklorida qahramonlarning ruhiy holati tasviri (ertak, doston va hokazolarda) alohida o‘rin egallagan. Masalan, qahramonning tashqi ko‘rinishi va uning portreti masalasida deyarli barcha xalqlar adabiyotida tasvir uslubida bir xillik va o‘xshashligi ko‘zga tashlanadi. Qahramonlarni salobatli etib tasvirlash, uning nutqida har bir so‘z ma’lum vazifa bajarishi hamda ruhiy tasvirga monand tarzda peyzaj tasvirining ham berilishi bu muammoning ildizi juda chuqur joylashganligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan qaralsa badiiy asar markazida inson tasviri joy oladi. Natijada har qanday millatning adabiyotshunoslik fani inson ruhiyatini ayni turli nuqai nazardan tadqiq etadi. Bir necha mingyillik tarixiga ega bo‘lgan milliy adabiyotimiz adabiyot tarixida inson hayoti, orzu-armonlari, ruhiy holatining rang-barang qirralari tasvir ob’yekti bo‘lib xizmat qildi va shunga mos ravishda adabiyotshunos olimlar o‘z adabiy-nazariy talqinlarini paydo bo‘ladi. Zero, dunyo adabiyotshunosligi erishgan ilmiy yutuq va to‘plagan boy tajribalarni milliy adabiyotdagi aniq nazariy masalalar, ya’ni qissa janri evolyutsiyasi, psixologik tasvir, obraz ruhiyati kabi muammolarni muhokama qilish uchun yo‘naltirish foydali, albatta.

O‘zbek qissachiligida ichiki pisixalogik ruhiyat talqinini Xurshid Do‘stmuhammad ijodida ko’rishimiz mumkin. Qissalardagi psixologizmning o`ziga xosligi birinchidan, o‘z-o‘zini rivojlantirishga qiziquvchanligi (“Hijronim meningdir mening” qissasi yor, oshiq obrazi) bilan ajralib turasa, ikkinchidan, uning atrofidagi haqiqat, ya’ni real borliqqa bo‘lgan ruhiy to‘qnashuv (“Yolg‘iz” hikoyasi Abdulla obrazi) uchinchidan esa qarama-qarshilikka ega bo‘lgan shaxsga alohida e’tibor qaratganligida o‘z aksini topgangida (“Nigoh” Bek obrazida) guvoh bo‘lish mumkin.

O‘zbek qissachiligi olam hodisalari va odam ruhiyati qirralariga xilma-xil qarash, olamning mavjudlik yo‘sini va undagi tartibotlarni turlicha izohlash imkoniyati mahsulini

yangicha talqin qildi. XX asrning 80- yillariga kelib inson psixologiyasida ulkan o‘zgarishlar sezila boshladi. Dunyoni tor doirada emas, keng jabhada o‘lchash kuzatildi. Ayniqsa, shaxs erkinligiga bo‘lgan qarash, uning jamiyatdagi o‘rni va qadr-qimmatining ulug‘lanishi, shaxs zimmasiga mafkuraviy-axloqiy mas’uliyatning oshib borishiga sabab bo‘ldi.

Shaxs erkinligi tushunchasi, ayniqsa, 80-yillar qissachiligida asosiy planga kuchdi. O‘zlikdagi erkinlik, jamiyatdagi erkinlik hamda qarashlardagi erkinlik borasida izlanishlar olib borildi, bu izlanishlar o‘z navbatida qissalarga kuchdi. Shu bilan birga, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini birma-bir bosib o‘tib kelayotgan inson borlig‘i yanada murakkablasha bordi. Qahramonning dunyoviy bilimi va ko‘nikmalari kengayib, jiddiylashib, “men” (ya’ni bu ijobiy tomon o‘zlikni anglash ma‘nosida) degan tushunchaning shakllanishi, inson “men”ining paydo bo‘lishi axloqiy-siyosiy, mafkuraviy-falsafiy nazariyalarning rivoji va davlat boshqaruvi tizimining har xilligi inson olamining o‘zgarishiga, uning murakkab ichki qarama-qarshiliklari yuzaga chiqishiga sabab bo‘ldi.

Fanlararo tarmoqlanishga e’tibor qaratilsa, inson ruhiyiy olamini dunyo ilm-fanining turli sohalari o‘z spesifikasiga mos ravishda o’rganayotganligi ayonlashadi. Falsafa, mantiq, psixologiya, adabiyot fanlari shular jumlasidandir. Ruhiy tasvir badiiy adabiyot – so‘z san’ati bilan psixologiya fani o‘zaro kesishgan nuqtada to‘qnashadi. Insonning ichki dunyosi, o‘y-kechinmalari, tafakkuri va tasavvuri kabi bir qator masalalar adabiy-psixologik talqin ob’yekti sifatida maydonga chiqadi. Bu jarayonda adiblarning dunyoni anglashi, his qilishi va munosabat bildirishi hamda qahramon ruhiyatini ochishning o‘zlariga xos eng qulay noan’anaviy usullarini tanlashi tabiiy sanaladi. Xuddi mana shu hodisa va faktorlarda yozuvchining mahorati ham ayonlashadi.

Ruhiy tasvirni tahlil etishda zamon va makon tushunchalariga, portret va peyzaj vositalariga, xarakter xususiyatga hamda dinamiklikni yuzaga keltiruvchi konfliklarga e’tibor qaratiladi. Umuman, ruhiy tahlilda adabiy zamon va makon muammosi ruhiy olam tasvirlashdagi asosiy quroldir. Barcahsini bir markazga yig’ganda esa bu tushunchalar “kuchli badiiylikdan” (N.Gay ta’biri bilan aytganda) dalolat beradi. Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida esa barcha ruhiy tasvirlar zamon va makon ko‘lami asosida belgilanadi. Adib asarlaridagi makon va zamon tekshirilganida ularning turli ko`rinishlari mavjudligi aniqlandi.

Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida zamon va makon tushunchalari bosh qahramonning o‘z qobig‘idan boshlanib, XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Ayniqsa, ruhiy olamni tor doirada (makonda) berish Xurshid Do‘stmuhammad uslubidan ham darak beradi. Adibning qissalarini xronotop muammosi bilan bog’liq holda ko’rib chiqishni boshlash eng muhim ekzestensial xususiyatlar bo’lib yuzaga chiqadi. Zamon va makon muallif shaxsi va u yaratgan obrazni barpo etishning ham ajralmas qismi sanaladi. Shuningdek, turli zamon va makon xatti-harakatlar tufayli syujet dinamikasi ta’sirlanadi, personajlarning psixologik evolyutsiyasi kuzatiladi. Adib qissachiligida bu kabi yangicha talqin va tasvir uslublari an’anaviy realizm, inson hayoti hamda shaxsining serjilo tovlanishlarini, “musbat va manfiy” qirralarini ifoda etishda beqiyos imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rishimizga imkon yaratadi. Adib qalamiga mansub bo‘lgan aksariyat qissalar ham o‘zbek nasriga xos ana shunday xususiyatlarni namoyon etadi. Ularda g‘arb modern adabiyotiga o‘xshash jihatlar: voqealarning sirli tarzda, turli ramziy vositalar orqali, ba’zan sahna ortida imo-ishoralar bilan

ko‘rsatilishi, voqealarning “men” tilidan hikoya qilinishi, yetakchi personaj doimo o‘zini-o‘zi taftishu tahlil etib borishi kabilar ko‘zga tashlansa-da, his-tuyg‘ulardan milliylikni, qahramonlar tasvirida xalqimiz ruhini sezib turamiz.

Adib qissalarida inson ruhiy olamini yangicha tasvir va uslubiy o’ziga xosliklar orqali o‘rganilishi, qissalarda davr odami ruhiyatining turli jihatlari oldingiga o‘xshamagan yo‘sinda yangicha badiiy ifodasini topayotganligini nazariy asosda ko‘rsatib berish holatlari kuzatiladi. Bunda inson ruhiyatining badiiy ifodasi oldida turgan muammolar nuqtai nazaridan o‘rganish, adabiy-etetik tamoyillarni aniqlash, adib qissalarining o‘ziga xosliklarini ruhiy tahlillar asosida o‘rganish muhim. Chunki ruhiy evrilishlar, tasvirlarni o‘rganish ham adabiyotning asosiy vazifasidir. Xurshid Do’stmuhammad o‘z qissalarida bir necha psixologik turlarning kombinasiyasidan ham foydalanadi. Ayniqsa, ijodkor meni va o‘quvchi, kitobxon o‘rtasidagi aloqa parallel ravishda bir-biriga bog‘lanib boraveradi. Ayniqsa, o‘quvchisiga taqdim etayotgan estetik qarashlar, tasviriy vositalar, tildagi obrazlilik, emotsionallikni anglab turadi. Yozuvchi ayni holda o‘tmish yozuvchilarining ijod tajribasida sinalgan, ustuvor va muqim g‘oyaviy-badiiy boyliklarni o‘z davri talabiga kura qayta ishlab, ijodiy rivojlantiradi.

Adib qissalarida muallif meni eshtiroki kuzatiladi. U asarni bayon etish bilan birga taftish ham etadi. Bu esa psixologik tahlilning muallif menidagi ifodasidir. Birgina “Chayongul” asariga e’tibor qaratilsa, ijodkorning xuddi shu usuldan foydalanganligiga misollar keltirish mumkin. yuqorida ta’kid etgan fikrimizga misol bo‘la oladigan parchalar aynan mana shu asarida talaygina. Birgina Eshniyoz muallimning aybsiz aybdor bo‘lishi sabablarini ijodkor bayon etib qolmasdan, balki taftish ham etadi. Bu esa ijodkorning bir yoqlama emas, balki asarni keng psixologik tahlilga moslanganligidan dalolat beradi. “Chayongul yoxud quyiqishloqcha qotillik” asarining nomlanshiyoq o‘quvchini sergak torttiradi. Kitobxonni birinchi o‘yga toldirgan savoli “chayongul” o‘simligi mavjud bo‘lsadir. Biroq asar o‘simlikka hech qanday daxli yo‘q. Unda ramziy ma’no o‘z ifodasini topgan. Xalqimiz ayolni gulga mengziydi. Gulni avaylab-asramasa u tezda nobud bo‘ladi. Shu bois ham badiiy asarlarda o‘xhatishlar aynan gulni tashkil etadi. Xurshid Do’stmuhammad esa gulning chayonga aylanish jarayonini ruhiy analiz orqali beradi. Qissaning kompozitsiyasi ham aynan ruhiy tahlil asosida berilgan. Unda uchta taftish mavjud. Barcha taftishlar muallif “men”i orqali olib boriladi. Ijodkor nafaqat taftish etadi, balki u chuqur psixologik tahlilga tortadi. Adabiyotshunoslikka e’tibor qaratilsa qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va psixologik holatini tahlil etish jarayoni haqida so‘z boradi. Ularning ichki kurashlari va rivojlanish jarayonlarini o‘rganadilar.

Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida psixologizm muammosi keng va chuqur yoritilgan. Psixologizm, adabiyotda qahramonlarning ichki dunyosi, hissiyotlari, ruhiy holatlari va motivlari orqali ularning xarakteri va xulq-atvorini tushuntirish usulidir. Xurshid Do‘stmuhammadning asarlarida psixologizm muammosi quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

1. Xarakterlarning ichki dunyosi

• Do‘stmuhammad qahramonlarining ichki holatlarini aniq va chuqur tasvirlaydi. Ularning fikrlari, hissiyotlari va ruhiy kurashlari asarlarning asosiy mavzularidan biridir. Bu, o‘quvchilarga qahramonlarning xulq-atvorini va qarorlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

• Misollar orqali xarakterlarining shaxsiy tajribalarini yoritadi, bu esa o‘quvchilarni ularning ruhiy holatiga jalb qiladi.

2. Hissiy kurashlar

• Qahramonlarning ichki kurashlari va hissiy tajribalari, ko‘pincha muammoli vaziyatlar fonida rivojlanadi. Ularning his-tuyg‘ulari, masalan, sevgi, qayg‘u, umidsizlik va ishonch, asarda markaziy o‘rin tutadi.

• Psixologik jihatdan yirik sahnalar orqali qahramonlarning ruhiy holatlari ochib beriladi, bu esa hikoyaning dramatik kuchini oshiradi.

3. Motivlar va qarorlar

• Xurshid Do‘stmuhammad qahramonlarining qaror qabul qilish jarayonida psixologik motivlar muhim ahamiyatga ega. Ularning ichki hissiyotlari va tashqi omillar, masalan, ijtimoiy muhit, oilaviy sharoitlar va jamiyatdagi qarorlar, xarakterlarining rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatadi.

• Har bir qahramon o‘z ichki muammolari va tashqi ta'sirlarga qarshi kurash olib boradi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga olib keladi.

4. Ijtimoiy muammolar

• Psixologizm orqali Xurshid Do‘stmuhammad ijtimoiy masalalarni ham ko‘taradi. Qahramonlarning psixologik holati ko‘pincha jamiyatdagi noqulayliklar, ijtimoiy adolatsizlik va boshqa muammolar bilan bog‘liqdir.

• Ijtimoiy sharoitlar va muhit, qahramonlarning ichki kurashlari va hissiyotlariga ta'sir ko‘rsatadi, bu esa psixologik tasvirni yanada chuqurlashtiradi.

5. Hissiyotlarning dinamikasi

• Asarlarda qahramonlarning hissiyotlari o‘zgaruvchan va dinamikdir. Ularning ichki holatlari vaziyatlarga qarab o‘zgaradi, bu esa o‘quvchilarga qahramonlar bilan chuqurroq bog‘lanish imkonini beradi.

• Hissiyotlar va ularning o‘zgarishi, qahramonlarning qiyinchiliklarga qarshi qanday kurashishini yoritadi.

6. Empatiya yaratuvchi tasvirlar

• Xurshid Do‘stmuhammad qahramonlarning ichki muammolari va hissiyotlarini kuchli tasvirlash orqali o‘quvchilarni ularning hayotiga empatiya qaratishga undaydi. Bu, o‘quvchilarni xarakterlar bilan bog‘lashga va ularning his-tuyg‘ularini his qilishga yordam beradi.

• Psixologik tasvirlar o‘quvchilarga qahramonlarning qarorlariga va xulq-atvorlariga chuqurroq nazar solishga imkon beradi.

Xullas, Xurshid Do‘stmuhammad qissalaridagi psixologizm muammosi xarakterlarning ichki dunyosini, hissiyotlarini va motivlarini chuqur yoritish orqali asarlarning dramatik kuchini oshiradi. U qahramonlarning shaxsiy rivojlanishi va ichki kurashlarini ko‘rsatib, o‘quvchilarga ularning hayotiga chuqurroq kirish imkonini beradi. Psixologizm nafaqat xarakterlar haqida, balki ijtimoiy va madaniy kontekstni ham yoritadi, bu esa asarlarni yanada boy va qiziqarli qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

1. Soliyonov У. XX asrning 80-90-yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Fil.fan.dokt.disser.avtoref. –T., 2002, 8-bet.
2. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent:
3. Worsley A. The poetry of loneliness from Romance to Romanticism. – Princeton: Princeton University, 2014. – 251 p.
4. Абдураҳмонова М. Абдулла Қодирийнинг психологик тасвир маҳорати: Филол. фан. номз. ... дис. – Т., 1977
5. Бекмиров Ж. Манзара жанрини тасвирий санъатдаги ўрни ва тарбиявий аҳамияти. Academic research in educational sciences, 2021, 243 бет.
6. Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012
7. Галанов, Б.Е. Живопись словом. Портрет. Пейзаж. Вещь [Текст] /Б.Е. Галанов. – М: Советский писатель, 1974,.185-с.
8. Гинзбург Л. О психологической прозе. – Ленинград: «Художественная литература», 1976, - 448 с.
9. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Л.: Художественная литература, 1976. – 448 с.
10. Гурьева, Т.Н. Новый литературный словарь. – Ростов на Дону:Феник, 2009. 213–с.
11. Есин А.Б. Психологизм. Русская словесность. – 1996. – № 1. – С. 73-80.
12. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994